INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI VA O'ZBEK TILI BILAN UYG'UNLASHUVI

Darxonboyeva Fotima Bohodirovna
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti
fotimadarxonboyeva1@gmail.com

Anotatsiya*: Ushbu maqolada O'zbekistonda ingliz tilini o‘qitish yo'lida qo'llaniladigan turli xil metod va texnikalar haqida bayon qilingan. Shu bilan birga ingliz tilini o'rganishga qo'llaniladigan yordamchi vositalarni o‘zbek tili bilan qiyoslab uyg‘unlashishi muhokama qilingan. Bundan tashqari maqolada o'rganish yo'lida duch keladigan muammolar, taklif etilgan yechimlar hamda rivojlanish yo'llari ko‘rib chiqilgan. O'rganuvchilarga o‘rganishda muhim bo'lgan yondashuvlari va metadologik jihatdan taqdim etish yo‘li bilan, qolaversa yqxshi natijaga yetishish yo‘lidagi harakat va ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, metodikaning shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan shaxslar, olim, professorlar ham ko'rib o'tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, metodika, texnika, yondashuvlar, dars ko‘nikmasi, olimlar, professorlar, CLT, TBLT, Natural aproach, audio lingual metod, grammatika, tarjima qilish, TESOL.*

Abstract: In this article, various methods and techniques used in the process of teaching English in Uzbekistan are described. At the same time, the integration of auxiliary tools applied in learning English with the Uzbek language is discussed. In addition, the article examines the problems encountered in the process of learning, the proposed solutions, as well as the ways of development. The main goal is to develop learners’ approaches and methodological ways of presentation that are important in learning, as well as to foster efforts and skills aimed at achieving good results. Moreover, the article also reviews the individuals, scholars, and professors who contributed to the formation of methodology.

Keywords:English, method, technique, approaches, lesson skills, scientists, professors, CLT, TBLT, Natural aproach, audio-lingual metod, grammar, translation, tesol.

Ingliz tilini o'rganish uchun katta katta imkoniyatlar mavjud bo'lsada, bu yo'lda bir nechta muammolar ham uchraydi. xx asr va xxi asr boshlarida ingliz tilini o‘qilishda an'anaviy usul ya'ni so'zlarni yodlash hamda tarjima metodikasidan ko'ra, so'zlashish va muloqot usullari uchun o'ziga xo'sh metodikalar ishlab chiqildi va o‘qitish boshlandi. dastlabki metod bu communicative language teaching (clt) bo‘lib, bu metod gramatikadan ozgina uzoqlashib asosan hayotiy muloqot vositasi sifatida o‘qilishga e'tibor beradi. shu bilan birga task-based language teaching (tblt) metodi ham mavjud bo'lib, u nazariy o'qishdan chetlashib, amaliy usulda ya'ni asosan nutqqa xos topshiriqlar bilan ingliz tilini o'rganishdir. keyingi metod bu

direct method va natural aproach bo'lib, ingliz tilini tabiiy muhit bilan o'rganish hisoblansa, yan bir metod audio-lingual metod bo‘lib, tillarni tinglab tushinish hamda takrorlash orqali o'rganishdir. bu bilan til ko‘nikmasi avtomatik tarzda yaxshilanadi. lekin ba'zi maktablarda hali hamon grammar translation method ya'ni eski metodlar qo'llanilib kelinmoqda. zamonaviy metodlarni eskilaridan farqi shundaki, yangi metodlar darsda qo'llanilsa, dars jarayonida barcha o'quvchilar faol bola oladi, speaking skillariga ham yordam beradi hamda amaliy til bilish uchun yo'nalganligi bilan farqlanib turadi. lekin bu metodlarni o‘zbekistonning ta'lim tizimida qo'llashda bir nechta muammolar yuzasidan muhokama qilsak:

til o'rganishga muhit yetishmasligi- o'quvchilarning maktabda boshqa tilda muloqot qilish imkoniyati ma'lum darajada cheklanib qolgan.

metodika resusrlarining kamligi- clt va tblt metodikalari uchun kerakli bo'lgan qo'llanmalar va darsliklar to'liq ishlab chiqilmagan.

o'qituvchilarning malaka darajalari- bu metodlar kirib kelishi yoki ishlab chiqilganiga ko'p vaqt bo'lmadi hamda shundan kelib chiqadiki, pedagog kadrlar ham malakaga to'liq ega emas. bu esa bilim darajasiga salbiy ta'sir qilmasdan qolmaydi.

sinfdagi o'quvchi sonining ko'pligi- o'zbek maktablarida bir sinfda 30tadan 40tagacha sinf bo'lganligi uchun 40minut dars davomida har bir o'quvchi bilan individual ishlash qiyinchilik olib keladi.

Shuning uchun ham ingliz tilining metodikasini ishlab chiqishda yuqori tajribalarni shu bilan birga o'zbek ta'lim tizimiga moslashgan holda ishlab chiqish zaruriyati mavjud va bu dolzarb ham vazifa ham muammo bo'lmoqda.

Til o‘rganishdagi metodikani o'zbek ta'lim tizimiga foydali bo'lishi uchun ilmiy jamiyatlar, davlat siyosati hamda albatta o'qituvchilar katta hissalarini qo‘shishadi. Yurtimizda kelasi yillarda bolalarga til orgatishda erta yoshdan boshlab o‘qitish rejalari mavjud. Prezident qarorlari asosan maktabgacha ta‘limdan boshlab til o'rgatish yo'lga qo'yilgan hamda bu metodikalarni o'zgartirishga olib keldi. Metodika deyilganda faqat xorijiy metodlarni tushinish xato bo'ladi va an'anaviy metodlar ham ishlab chiqilmoqda. Misol uchun CLT, TBLT metodlari o'zbek ta'lim tizimiga moshlatirishda ko'plab metodistlar va olim, professorlar xizmat qolishmoqda. Bularning natijasida esa ingliz tili o‘qitishda yangi usullarni qo'llash orqali o‘rganuvchilarni darsga jalb qiloladi. Yurtimiz ta'lim shaklida bu usullarni qo'llash uchun moslashtirish kerak va bu yo'ldagi aytib o'tilgan muammolar o'z yechimini asta bartaraf etmoqda. Shu bilan birga davlat siyosati, xalqlar are hamkorliklar va o'qituvchilarning xizmatlari natijasida ingliz tili metodikalari soni kengayib bormoqda.

Metodikalarni ishlab chiqishda turli olimlar, professorlar va o'qituvchilar hikmat qilishgan. O'zbek professorlaridan Sh. Rahmatullayev ingliz tili tilshunosligida hamda ko'plab metodikalar ishlab chiqish bo'yicha mashhurdir. Professor G. Abdurahmonova ham tillarni o'qitish metodikasi va tarjima nazariyalari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borgan va ko'p til o'qitish to'g'risidagi maqola va ilmiy ishlarda bu shaxsning nomlarini ko'rishimiz mumkin. Dotsent M. Yoqubova ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ metodlarni ko'rsatib bera olgan. Bundan tashqari Xorijiy o'qituvchilar ham tillarni o'qitish bo'yicha mashhurdir. Misol qilib, Noam Chomskiy generativ gramatika nazariyasi orqali o'rganuvchining til o'rganishdagi tug‘ma qobiyatini asoslagan. Stephen Krashen narural aproach nazariyasi bo'yicha til o'rganishda tabiiy muhit va tushunarlilik bir asosiy omil sifatida ko'radi. Yana bir olim Michael Long TBLT metodikasiga o'zining katta hissasini qo‘shgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, umuman olganda ingliz tilini o'rgatishda yangi ishlab chiqilgan metod, usullardan foydalanish o'quvchilar uchun faqat nazariy bilim emas,

o'zlarining hayotiy yo'lida kerak bo'ladigan amaliy muloqot ko‘nikmasini ham organadi. O'zbek ta'lim tizimida bu kabi yondashuvlari amalga oshirish uchun malaka darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, o'qitish, shu bilan birga yaxshi sifatga ega bo'lgan darsliklarni yaratish, ham zamonaviylashgan texnologiyalardan doimiy foydalanish ta'lim tizimining rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari metodika bo'yicha kerakli resurslarni topshiriqlar yoki ularni kengaytirish uchun xalqaro tashkilotlarning (Britaniya va Amerika kengashi, TESOL) elektron platformalaridan foydalanish mumkin. Bunda chet elning ilmiy resurslarini milliy ta'lim sharoitiga o'girishda ham foydalanilsa bo'ladi. Bundan tashqari onlayn kurslar, ochiq bo'lgan ilmiy manbalar ham o‘qituvchi va o'quvchilar uchun qo'shimcha manba deb qarash mumkin. Shunday qilib, xorijiy tillarni o‘qitishda metodika va texnikalarni kengaytirish, manbalarning sonini oshirish orqali ta'lim sifatini sezilarli tarzda o'zgartirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The Role of ICT in English Language Teaching and Learning.
2. Qodirova D., Yo‘ldosheva M. – Ingliz tili o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2019).
3. . Xoliyorov A. va boshqalar – Ingliz tilini o‘qitish metodikasi (darslik, Toshkent, 2015).
4. Stephen Krashen – Principles and Practice in Second Language Acquisition (1982)
5. H. Douglas Brown – Principles of Language Learning and Teaching (2000)
6. Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers – Approaches and Methods in Language Teaching (2001)
7. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. Hoshimov O., Yoqubov I. (2003)” - O‘zbekistonda ishlatiladigan metodika bo‘yicha darslik.